



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar-may holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **428 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **0,2 f.p. kamaydi.**
- Tugatilgan korxonalar va tashkilotlarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1,8 mingtaga oshgan.**


2018 yilning yanvar-may oyida viloyatda 2,4 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 396 taga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 45,8 % ga kamaygan hamda ularning soni 436 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2,2 mingta (8,2 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 29,1 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Qibray (11,1 %), Zangiota (9,6 %) va Toshkent (7,0 %) tumanlarida kuzatilmoqda.


Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), foizda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 iyun holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlikda	jamiga nisbatan %	birlikda	jamiga nisbatan %
Toshkent viloyati	32936	100,0	29121	100,0
<i>tumanlar:</i>				
Oqqo'rg'on	783	2,4	647	2,2
Ohangaron	750	2,3	669	2,3
Bekobod	908	2,8	783	2,7
Bo'stonliq	1593	4,8	1280	4,4
Bo'ka	1095	3,3	843	2,9
Quyichirchiq	811	2,5	730	2,5
Zangiota	3283	10,0	2796	9,6
Yuqorichirchiq	1877	5,7	1794	6,2
Qibray	3403	10,3	3228	11,1
Parkent	1662	5,0	1561	5,4
Piskent	865	2,6	786	2,7
O'rtachirchiq	1556	4,7	1417	4,9
Chinoz	1082	3,3	1032	3,5
Yangiyo'l	1691	5,1	1410	4,8
Toshkent	2356	7,2	2028	7,0
<i>shaharlar:</i>				
Nurafshon	782	2,4	723	2,5
Olmaliq	1390	4,2	1306	4,5
Angren	2219	6,7	1734	6,0
Bekobod	964	2,9	909	3,1
Ohangaron	806	2,4	721	2,5
Chirchiq	1852	5,6	1740	6,0
Yangiyo'l	1208	3,7	984	3,4


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 88,4 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 11,6 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,9 f.p. kamaygan

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,2 % savdoda, 18,9 % sanoatda, 11,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 7,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 7,1 % qurilishda, 3,4 % tashish va saqlash, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,4 % axborot va aloqa va 26,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi




2018 yil yanvar-may holatiga 2422 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 16,1 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Zangiota (238 ta), Qibray (215 ta) Toshkent (168 ta) va Yangiyo'l tumanlariga (154 ta) to'g'ri keladi. Eng kam Piskent (54 ta), Quyichirchiq tumanlari (63 ta) va Ohangaron shahrida (59 ta) tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoatda (555 ta), savdoda (476 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (393 ta) va qurilish (285 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (41 ta), axborot va aloqada (54 ta) va tashish va saqlashda (86 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-may holatiga.	2018 yil yanvar-may holatiga.
Jami:	2087	2422
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	458	393
Sanoat	556	555
Qurilish	147	285
Savdo	368	476
Tashish va saqlash	83	86
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	199	173
Axborot va aloqa	34	54
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	31	41
Boshqa turlari	211	359



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-0,8 f.p), boshqa faoliyat turlarida (-0,7 f.p), savdo (-0,5 f.p), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (-0,2 f.p.), axborot va aloqada (-0,1 f.p.) kamayganligi, buning natijasida sanoatda va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,6 f.p.) hamda qurilishda (+1,0 f.p.) ulushining o'sishiga olib keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda


Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.06.2018 y.	01.06.2017 y.	farqi (+-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1,8	2,6	-0,8
Savdo	22,2	22,7	-0,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,5	7,7	-0,2
Axborot va aloqa	1,4	1,4	-0,1
Tashish va saqlash	3,4	3,4	0,1
Sanoat	18,9	18,3	0,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	11,0	10,4	0,6
Qurilish	7,1	6,1	1,0
Boshqa turlar	26,6	27,3	-0,7

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 iyun holatiga 23,9 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5,6 mingta, oilaviy korxonalar – 1,5 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 16,2 mingta, aksiyadorlik jamiyatlari – 0,05 mingtani va boshqalar 0,6 mingtani tashkil etadi.




Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 677 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 549 taga yoki 23,3 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 402 tasi qo'shma korxonalar, 275 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Zangiota tumani 85 ta (12,6 %) Qibray tumani 76 ta (11,2 %) va Yuqorichirchiq tumani 64 ta (9,9 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Bekobod 4 ta (0,6 %) Piskent va Bo'ka 6 tadan (0,9 %), Oqqo'rg'on tumani 9 ta (1,3 %), hamda Bekobod shahri 5 ta (0,7 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hudular kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 iyun holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 428 ta (63,5 %), savdoda 94 ta (13,9 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 59 ta (8,7 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 47 ta (6,9 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa axborot va aloqada 1 ta (0,1 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 7 ta (1,0 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 12 ta (1,8 %), qurilishda 13 tadan (1,9 %) hamda tashish va saqlashda 16 ta (2,4 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-may oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 83 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 61 taga ko'paygan yoki 3,8 baravarga oshgan.


Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 24 ta, Turkiya Respublikasi -16 ta, Rossiya Federatsiyasi -14 ta, Qozog'iston Respublikasi - 10 ta, yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Buyuk Britaniya, Koreya Respublikasi, Chexiya Respublikasi, Isroil davlati, Latviya Respublikasi, Moldova Respublikasi, Singapur Respublikasi, Turkmaniston, Pokiston Islom Respublikasi, Daniya Qirolligi va Amerika Qo'shma Shtatlarilar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-may holtiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, sanoatda 51 ta, savdoda 12 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 9 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va boshqa turlarda 3 tadan, qurilish hamda tashish va saqlashda 2 tadan va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 iyun holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 23,7 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 iyun holatiga qaraganda 11,7 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2,7 mingtasi (11,6 %) Qibray, 2,3 mingtasi (10,0 %) Zangiota, 1,7 mingtasi (7,4 %) Toshkent hamda 1,5 mingtasi (6,5 foizi) Yuqorichirchiq tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 23,7 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 6,4 mingtasi (27,2 %) – savdoda, 5,4 mingtasi (22,8 %) - sanoatda, 3,1 mingtasi (13,3 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 2,2 mingtasi (9,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 2,1 mingtasi (8,7 %) - qurilishda, 1,0 mingtasi (4,1 %) - tashish va saqlashda, 0,4 mingtasi (1,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 0,3 mingtasi (1,6 %) axborot va aloqa sohasida hamda 2,7 mingtasi (11,4 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-may holatiga 2,2 mintaga yaqin kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 10,8 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Zangiota (228 ta), Qibray (204 ta) va Toshkent tumanlarida (150 ta) tashkil etilgan. Eng kam Piskent (48 ta), Quyichirchiq (58 ta) tumanlari hamda Ohangaron (52 ta) shahrida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (553 ta), savdoda (476 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (392 ta) va qurilishda (285 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (38 ta), axborot va aloqada (54 ta) hamda tashish va saqlashda (84 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 iyun holatiga 1643 tani tashkil etib, ulardan 1470 tasi yoki 89,5 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **11,9** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 39,1 % yoki 575 tasi sanoat, 18,8 % yoki 276 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 17,4 % yoki 256 tasi savdo, 16,3 % yoki 240 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,0 % yoki 14 tasi qurilish, 0,8 % yoki 12 tasi tashish va saqlash, 0,5 % yoki 7 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,3 % yoki 5 tasi axborot va aloqa hamda 5,8 % yoki 85 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan

Nashr uchun mas'ul: **X.Igamberdiyev**
(0371) 230-86-84,83